

15. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. - М.: АН СССР, 1961. 64. Лотте Д.С. Краткие формы научно-технических терминов. - М.: Наука, 1971.
16. Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии. Т.1. - М.: Московский лицей, 1994.
17. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2017. -B.28-30
- Internet saytlari
18. www.kutubxona.uz
19. www.ziyounet.uz
20. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Terminologiya>
21. <http://dic.academic.ru/>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**



**O'ZBEK TILI TERMINOLOGİYASI VA LEKSIKOLOGİYASI**

**FANING ISHCHI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000	-	Gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	120 000	-	Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5120100	-	Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) (4-kurs 2-mut)

Umumiy o'quv soati – 122 soat

Shu jumladan: 122 soat

Ma'ruza – 4 soat (7-semestr – 4 soat)

Amaliy mashg'ulotlar - 6 soat (7-semestr – 6 soat)

Seminar mashg'ulotlari – 6 soat (7-semestr – 6 soat)

Mustaqil ta'lim – 106 soat (7-semestr – 106 soat)

Toshkent – 2022

Fanning ishchi o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashning 2018-yil "14" iyundagi 531-sonli (buyruqning 10-ilovasi) bayoni bilan tasdiqlangan.

#### Tuzuvchilar:

**R. Abdullayeva** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**N. Tashmatova** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida o'qituvchisi

O'zbek filologiyasi  
fakulteti dekani:

2022-yil " " "

Masofaviy ta'lim markazi dekani:


2022-yil " " "

O'zbek tilshunosligi  
kafedrasida mudiri:

2022-yil " " "

  
B. Abdushukurov

N. Chiniqulov

  
(imzo)  
Z. Xolmanova

#### 1. O'quv fanining o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

"O'zbek tili terminologiyasi leksikologiyasi" fani talabalarga terminologiya bilan bog'liq zamon talablariga mos bilimlar berish, bo'lg'usi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisining muayyan sohalar terminlari haqidagi dastlabki bilim, ko'nikma, malakalarini hamda kompetensiyalarni shakllantirish, ularga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida mazkur fanni zamon talablari darajasida o'zlashtirish vazifalarini hal qilishni nazarda tutadi. "O'zbek tili terminologiyasi va leksikologiyasi" fani bo'yicha talabalarga terminologiya bilan bog'liq nazariy bilimlar berish, terminlarning ilmiy manbalardagi zarurati va ahamiyatini tushuntirish, termin tuzilishi va uning leksik xususiyatlari haqida tasavvur shakllantirish, fanning integratsion usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Fanning leksikologiya qismida tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri hisoblanish leksikologiyaning tadqiqot doirasi, til tizimida alohida va o'ziga xos qatlam vazifasini bajarishi, fikr va tushuncha ifodalash jarayonining eng muhim birligi ekanligi, so'z va leksema munosabati, so'zning nomshunoslik, frazeologizmlar, turg'un birikmalar bilan munosabati, so'zning uzuallik va okkozionallik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Talabalarga o'zbek tili terminologiyasining ilg'or yutuqlarini, amaliy sohalarida qo'llanilishi va ahamiyatini turli fanlar kesimida tahlil qilish va tushuntirish;

Talabalarda so'z va uning semantik, kognitiv, struktural tuzilishi haqida tushuncha hosil qilish, sohaning terminologiya sohasi bilan izchil aloqadorligini ko'rsatish;

O'zbekistonda amal qilinayotgan terminlarni izohlay olish, sohaviy terminlarni boshqarish va tizimlashtirish ishlarini maqsadga muvofiq xorij tajribalaridan foydalanib optimallashtirish va qiyoslab o'rganish nazarda tutilgan.

**Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:**

#### Talaba:

– "O'zbek tili terminologiyasi va leksikologiyasi" fanining obyekt va predmeti;

– "O'zbek tili terminologiyasi" fanining ta'lim tizimida tutgan o'rni;

– "O'zbek tili terminologiyasi va leksikologiyasi" fani bo'yicha yaratilgan darsliklar, qo'llanmalar xususiyatlari;

– o'zbek tili va adabiyot o'qituvchisining integratsion pedagogik faoliyatining nazariy-metodik asoslari, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish metodikasi, turli fanlarni o'qitishda darslarni kompyuterlashirish, kasbiy va yo'naltiruvchi ta'lim hamda uning xususiyatlari, turli fanlarga oid ma'lumotlar omboridan samarali foydalanish yuzasidan **bilimga**;

– "O'zbek tili terminologiyasi va leksikologiyasi" fani bo'yicha o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, kasb-hunarga o'rganishga yo'llash;

– ta'lim tizimida fanlarning mazmuni, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan integratsion metod va usullar asosida ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini tashkillashtirishning amaliy jihatlarni oshirish, kasbga yo'naltirib muammoli o'qitish yuzasidan **ko'nikmaga**;

– mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini, uni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq tajribalarni shakllantirish;

– ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan zarur bilimlarni o'quvchilarga yetkaza olish, zamon talabiga mos tarzda fanlararo bilimlarni umumlashtirib tushuntira olish; *malakalariga ega bo'lishi kerak.*

**2. Ma'ruza mashg'ulotlari**  
**“O'zbek tili terminologiyasi va leksikologiyasi” fani bo'yicha ma'ruza**  
**mashg'ulotlari taqsimoti:**

7-semestr

Nö	Mavzular 7-semestr	Soati
1.	Termin va terminologiya. O'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari.	2
2.	Leksikologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Terminologik leksikaning umumadabiy leksika bilan munosabati. Sohaviy yangi terminlarni shakllantirishda o'zbek tili ichki imkoniyatlaridan foydalanish	2
	<b>Jami</b>	<b>4</b>

**3. Amaliy mashg'ulotlar**  
**“O'zbek tili terminologiyasi va leksikologiyasi” fani bo'yicha amaliy**  
**mashg'ulotlar taqsimoti:**

7-semestr

Nö	Mavzular 7-semestr	Soati
1.	Terminlarning semantik xususiyatlari. Terminlarning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari	2
2.	O'zbek terminologiyasi taraqqiyoti.	2
3.	Terminologiyada yuzaga kelgan muammolar, ularning sabablari. “Ona tili” va “Adabiyot” fanlarini o'qitishda terminlarning bugungi kundagi ahamiyati.	2
	<b>Jami</b>	<b>6</b>

**4. Seminar mashg'ulotlar**  
**“O'zbek tili terminologiyasi va leksikologiyasi” fani bo'yicha seminar**  
**mashg'ulotlar taqsimoti:**

7-semestr

Nö	Mavzular 7-semestr	Soati
1.	Leksikologiyaning tadqiqot obyekti. So'z va leksema, sema, semema, nomema tushunchalari.	2
2.	O'zbek tili leksik qatlarning taraqqiyot bosqichlari va boyish manbalari. Lug'at tarkibining kengayishida ichki va tashqi omillar.	2
3.	Leksikologiya terminologiyaning negizi sifatida.	2
	<b>Jami</b>	<b>6</b>

**5. Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi**

Talabaga mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqima materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- o'rganilmagan, muammoli mavzular bo'yicha tezis, maqolalar tayyorlash;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distanston) ta'lim.

7-semestr

N	Mustaqil ta'lim mavzulari 7-semestr	Soatlar miqdori
1	O'zbek tili terminologiyasi fani o'rganadigan muammolar va ularning yechimi.	10
2	O'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari; o'zbek tili so'z boyligida sohaviy terminlar va ularning lingvistik xususiyatlari.	10
3	O'zbek terminologiyasini takomillashtirish masalalari; sohaviy terminologiyada amalga oshirilayotgan islohotlar	10

4	O'zbek terminologiyasini takomillashtirishda o'zbek shevalari imkoniyatlaridan foydalanish	10
5	O'zbek terminologiyasini takomillashtirishda o'zbek tilining so'z yasash imkoniyatlaridan umumli foydalanish	10
6	O'zbek terminologiyasini takomillashtirish masalalari: tashqi manbaa	10
7	Mustaqillik davri o'zbek tili terminologiyasi	10
8	Terminologik leksikografiya	10
9	Terminlar yasalishi	10
10	Terminologiya va leksika	10
11	Graduoniimiya, sinonimiya, partonimiyaning o'ziga xos xususiyatlari	6
	<b>Jami</b>	<b>106</b>

#### TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarining bilimini baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

##### 1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida \_\_\_\_\_ shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha \_\_\_\_\_ shaklda o'tkaziladi.

**Izoh:** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 marta o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarining o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

##### 2. Talabalarining bilimini baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrini bildiradi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

#### 7. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari Asosiy adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. – Toshkent, 1996.
2. Hojiyev A. Tishunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2002.
3. Akobirov S. Termin va terminologiya. – Toshkent, 1968.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.
5. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
6. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili (Kirish. Fonetik sath. Leksik-semantik sath). Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Мирзиёв Ш.М. Танкидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 102 б.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. 2019-yil, 29-aprel.
9. Bekirov F. Yuridik terminlar lug'ati. – Toshkent, 1959
10. Bekirov R., Ahmadjonov O. Fizikadan ruscha-o'zbekcha qisqacha lug'ati. – Toshkent, 1984.
11. Bekmuhamedov X.D. Tarix terminlari izohli lug'ati. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining studentlari va o'rta maktab tarix o'qituvchilari uchun. Toshkent: O'qituvchi, 1978.
12. Bektemirov N., Begmatov E. Mustaqillik davri atamallari. – Toshkent, 2002.
13. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977.
14. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. Тошкент: Фан, 1977.